

# UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

*Xolmatov Pardaboy Karabekovich*

*JVPYAMOMM, Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri, p.f.n., dotsent., Jizzax sh., O'zbekiston.*

*e-mail: pardaboy2012gmail.com*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirishga oid mulohazalar keltirilgan.*

*Kalit so'zlar: kasb-hunar, o'quvchi o'z qiziqishi, qobiliyat, bilim, amalda tadbiq*


Hurmatli prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" deb nomlangan asaridagi quyidagi fikrlar e'tiborga molik: "fazandalarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz". Respublikamizda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish jarayonida bo'layotgan o'zgarishlar, ya'ni qabul qilingan qonun va farmoyishlar jamiyatimizning rivojlanishida muhim omillardan biridir.

Respublikamizda ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichi ta'lim mazmuni va metodikasiga, uning samaradorligini oshirishga sifat jihatdan yangi talablar qo'yimoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki bilim, mehnat ko'nikmalari, malakalarini, mehnatga qiziqish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish, mehnat va kasblarni qadrlashga, ularning ahamiyatini tushunishga o'rgatish hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida yashash manbai bo'lgan mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifat va tafakkurlarini rivojlantirish, qiziqishi, mayl va qobiliyatiga xos kasb-hunar tanlashiga zamin yaratish texnologiya fanining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari texnologiya fanidan 1-9-sinflarda ishlab chiqarish va agrar sohalarga oid kasb-hunarlar bilan tanishadilar, faoliyatini o'rganish bilan birga, ularning ish uslublarini o'rganadilar.

1-shakl. O QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH



Ishlab chiqarish jarayonlari yuqori darajada sanoatlashgan Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh, Izrail, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy xalq Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida ham texnologik ta'lim ishlab chiqarishning bo'g'ini hisoblanib, jahon mehnat bozoriga malakali mutaxassislar tayyorlash muhim bosqichlari va tashkil etuvchilaridan biri deb qaraladi. O'quvchi ta'lim standarti bilan cheklanishi mumkin yoki bilimlarni chuqurroq egallash maqsadida mustaqil ravishda kengroq, chuqurlashtirilgan bilim olishga va yuqori reyting bali to'plash huquqiga ega. Natijada, qiyin yoki o'quvchi xush ko'rmaydigan predmetni o'rganishda unda standartda belgilangan me'yor bilan cheklanishga imkon beriladi. Bunda o'quvchi o'zining qiziqishi, layoqati, qobiliyatini ro'yobga chiqarish, o'zi uchun eng maqbul yo'lni ongli va mustaqil tanlash imkoniga ega bo'ladi. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha rivojlangan davlatlar agrar ishlab chiqarishdan sanoat ishlab chiqarishga, ya'ni yangi texnika va ilg'or texnologiyalarga asoslangan elektrotexnika va elektronika, robototexnika, avtomatlashtirilgan sanoat ishlab chiqarish davlatiga o'tib bormoqda. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda mutaxassislarning texnikaviy salohiyati muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislarning boshlang'ich ko'nikmalari aynan umumiy o'rta ta'lim maktablarining texnologiya darslarida shakllantiriladi.

Texnologiya va kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlari oldiga qo'yilgan yuqoridagi vazifalarning bajarilishini nazorat qilish Davlat ta'lim standarti orqali amalga oshiriladi. Bu boradagi tadqiqotlarning yosh avlodni kasb tanlashga tayyorlashning amaliy yechimini topishga qaratilgan quyidagi asosiy yo'nalishlarini qayd etish mumkin:

- o'quvchilarning kasblar olamida yo'nalish olishiga yordam beruvchi hamda o'z individual imkoniyatlarini haqqoniy baholay olish ko'nikmalari zarur darajasini ta'minlovchi kasbiy axborotlar tizimini yaratish;

- o'quvchilarning kasb tanlashiga yordam berish maqsadida shaxsni o'rganishning tashxis metodlarini ishlab chiqish;

- yoshlarga kasbiy maslahatlar uyushtirishning nazariy va metodik asoslari;

- kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatli motivlarini asoslash;

- bitiruvchi sinf o'quvchilarini ishchi kasblarga yo'naltirishning mazmuni, shakl va metodlari;

- O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturni amaliyotga tatbiq etish sharoitida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning pedagogik sharoitlari;

- alohida olingan hududiy markazlarda yoshlarni kasb tanlashga yo'llash ishini boshqarish xususiyatlari.

Shu sababli o'quvchilarning hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur.

"Kasb tanlashga yo'llash texnologiyasi - o'quvchi yoshlarni xohishlari, moyilliklari va shakllangan qobiliyatlarga asosan jamiyat va xalq xo'jaligining ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda ish bilan ta'minlashni optimallashtirishga qaratilgan pedagogik tizim loyihasini amalga oshirish" deb ta'rifladik.

Shaxsiy va jamiyat ehtiyojlariga asoslangan holda kasb tanlashga yo'llash o'quvchi hamda o'qituvchi munosabatlari, ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yaqin o'tmishda ta'lim oluvchining ta'lim jarayonidagi ishtiroki nazariy bilimlarni qabul qilib oluvchi va o'zlashtirilgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalarni namoyish etuvchi subyekt sifatidagi o'rni bilan kifoyalangan bo'lsa, ta'lim texnologiyasi talablariga ko'ra ta'lim oluvchi ta'lim jarayonining yetakchi subyekt, asosiy ijrochisi sifatida ko'rinadi. Endilikda ta'lim oluvchi ta'lim beruvchi tomonidan uzatilayotgan axborot (bilim)larni qabul qilmaydi, balki ta'lim beruvchining yo'llanmasi, ko'rsatmasiga muvofiq tavsiya etilgan o'quv manbalari bilan mustaqil ravishda tanishish orqali nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, ta'lim beruvchi nazorati ostida amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qiladi. Ta'lim oluvchi mustaqil faoliyat yuritish, nazariy bilimlarni o'zlashtirish asosida o'zida fikrni ilgari surish, dalillar keltirish, o'z fikrini himoya qilish layoqatini tarbiyalay olishi, o'z-o'zini tanqid qilish, o'z-o'zini baholash sifatlarini qaror toptira olishi talab etiladi. Davr talabi ta'lim oluvchini ta'lim jarayonining sust tinglovchisi bo'lishdan faol ishtirokchisiga aylantirishni taqozo etmoqda .

O'quvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik roli quyidagi pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi:

- 1) o'quvchida bo'lajak kasbi to'g'risidagi bilimlarni va ma'lumotlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni qaror toptirish;
- 2) kasb tanlashga nisbatan ongli yondashuvni shakllantirish;
- 3) mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;
- 4) o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, nazariy va amaliy bilimlar mohiyatini tahlil etish, ular borasida xulosalar chiqarish, umumlash-tirish hamda ularni o'z amaliy faoliyatiga tatbiq etish ko'nikmalarini yuzaga keltirish va takomillashtirish;
- 5) o'z-o'zini nazorat qilish, qiyosiy baholash, tahlil qilish sifatlarini shakllantirish.

O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda ta'lim shakli, metod va vositalarining ahamiyati katta. Zero, ular o'quvchining imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, bilim, ko'nikma va malakalarini bo'lajak faoliyat sohasi talablari asosida shakllantirish uchun shart-sharoit yaratib beradi. O'z navbatida o'quvchilarning yosh, psixologik,

fiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, dunyoqarashining ko'lami hamda ularning faolligi samarali, ilg'or, noan'anaviy ta'lim shakli, metod va vositalarini tanlash, ulardan maqsadga muvofiq darajada foydalanish uchun turtki bo'ladi.

Hulosa qilib aytganda o'quvchilar kasb tanlashga oid bilimlarning asosiy hajmini umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-9 sinflarida texnologiya ta'limi jarayonida egallaydilar. bu jarayonning muhimligini ta'kidlovchi ikki omil tahlil qilib berildi, ya'ni birinchidan, kasb tanlashga yo'llash ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilganida o'quvchilar o'z qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari, salomatligi va boshqa sifatlaridan kelib chiqib kelajagini to'g'ri belgilab olishini ta'minlaydi; ikkinchidan, jamiyatimizning har bir jabhasida o'z kasbini mahorat darajasida egallagan, mustaqil va ijodiy fikrlovchi mutaxassislarga ega bo'ladi. Kasbga yo'naltirish ishlari tizimli ravishda, izchil takomillashtirib borilgandagina o'quvchining kelajakda mukammal kasb egasi bo'lishiga erishiladi.

### **Adabiyotlar:**

1.Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. - T.: "O'zbekiston", 2016.-56 b.

2.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: "O'zbekiston", 2017. -102 b.

3.Xolmatov P.Q. Texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. 3.1.modul. Majmua. JVPXQTMOHM. 2022.

4.Xolmatov P.Q. va boshq. Kasb tanlash hususiatlari. Oquv qollanma. Poytaht-Eksklyuziv. T.2022.

5.Xolmatov P.Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirish. Metodik qo'llanma. Navruz. 2021.